ALISHER NAVOIY

# Farhod va Shirin

*(DOSTONNING IXCHAM NASRIY BAYONI)*

Toshkent
«Yangi asr avlodi»
2012

**UDK: 821.512.133**
**BBK: 84(5O‘zb)5**
**N–14**
**Navoiy A**. Farhod va Shirin/dostonning ixcham nasriy bayoni. –T.: «Yangi asr avlodi» 2012. 84 b.

Qo‘lingizdagi kitobcha Alisher Navoiy qalamiga mansub dostonning ixcham nasriy matni bo‘lib, asar biroz qisqartirilgan tarzda, lekin mazmun to‘liq aks ettirilgan. Kitobcha maktab, kollej va litsey o‘quvchilari va Navoiy ijodi muxlislari uchun mo‘ljallangan.

**UDK: 821.512.133**
**BBK: 84(5O‘zb)5**

**Doston matnini qisqartirib bayon etuvchi:**
Anvar HOJIAHMEDOV,
filologiya fanlari doktori, professor

**Mas’ul muharrir:**
Vahob RAHMONOV,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Taqrizchi:**
Omonillo MADAYEV,
O‘zMU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

ISBN 978-9943-08-312-7
© «Farhod va Shirin». «Yangi asr avlodi», 2012-yil

Kitobxon.Com

## MUQADDIMA

Farhod va Shirin... Sharqda bu ikki nomni eshitmagan, ularning pokiza muhabbati, sidqu vafosi, fojiali taqdirlari haqidagi rivoyatu dostonlarni tinglab iztirob chekmagan odam kam topilsa kerak. Mana ming yilga yaqinlashyaptiki, tosh kesuvchi pahlavon yigitning sohibjamol Shiringa boʻlgan otashin sevgisi haqidagi hikoya va dostonlar asrlardan-asrlarga, avlodlardan-avlodlarga oʻtib keladi. Nizomiy Ganjaviy va Xisrav Dehlaviyning asarlarida Farhod Eron shohi Xisrav Parvez tomonidan uning sevikli rafiqasi Shiringa atab togʻda qazilayotgan ariq va qurilayotgan qasrni bunyod qilish uchun taklif etilgan tosh yoʻnuvchi usta sifatida qalamga olingan boʻlib, malikani koʻrib qolgan yigitning uni qattiq sevib qolishi, Shirin unga beparvo boʻlsa ham, shoh rashk qilib, Farhodni makr-hiyla bilan oʻldirishi nihoyatda ta'sirchan tasvirlangan edi. Har ikkala shoir asaridagi bosh qahramon Xisrav boʻlib, Farhod haqida qisqagina hikoya qilingan edi, xolos. Shunga qaramay bu rivoyat forsiy va turkiy xalqlar oʻrtasida keng tarqalib, xalq ogʻzaki ijodi va yozma adabiyotlarda shu mavzudagi koʻplab asarlarning maydonga kelishiga bois boʻldi.

Soʻz sohibqironi Alisher Navoiy oʻz «Xamsa»sidagi ikkinchi dostonni yozishga kirishar ekan:

*Zaruratkim solib bir oʻzgacha tarh,*
*Bu mehnatnomani qilgʻumdurur sharh.*
*Munosibkim agar tortib navoni,*
*Desam Farhodi mahzun dostoni.*
*Yozib jon mushafidin ikki oyat,*
*Debon Farhodu Shirindin hikoyat*

deya Farhod bilan Shirinni asarning bosh qahramonlariga aylantirdi-da, ularning bir-birlariga boʻlgan samimiy sevgisi,



Kitobxon.Com

oʻzaro vafodorligi, fojiali taqdirlarini atroflicha yoritishni oʻz oldiga maqsad qilib qoʻydi va oʻz dostonini «Farhod va Shirin» deb atadi. Shoirga Xisrav timsolining Nizomiy va Xisrav Dehlaviylar asarlaridagi talqini ma'qul tushmagani ma'lum. U oʻz dostonining kirish qismida

*Vale chekkanlar ushbu jomdin roh,*
*Sarosar boʻldilar Xisravga maddoh.*
*Ki mulki andoqu oyini mundoq,*
*Sipohi andoqu tamkini mundoq.*
*Topib gah Maryam ogʻushida orom,*
*Shakar halvosidin gohi olib kom,*
*Boʻlub Shiringʻa oshiq podshahvor,*
*Gah ul mahbub oʻlub, gohi parastor.*
*Yaqindurkim bu shohi noz parvard,*
*Erur dardu balo oyinidin fard*

deb yozar ekan, Xisravni ijobiy timsol sifatida tasvirlashga munosib koʻrmaydi. Shuning uchun ham Navoiy uni salbiy xususiyatlarga ega, zolim, bosqinchi, makkor va nomard hukmdor sifatida aks ettirdi.

Bu xil tasvirlar natijasida «Farhod va Shirin» dostoni pokiza muhabbat, vafo va sadoqat qoʻshigʻiga aylandi, uning bosh qahramonlari esa ishq olamining yorqin yulduzlari boʻlib, jahonga tanildi.

Hazrat Navoiyning bu bezavol asari besh asr davomida elimiz orasidagina emas, barcha turkiy xalqlar orasida ham keng shuhrat qozonib, sevilib oʻqildi va avlodlarni olijanob insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalab keldi. Hozirgi istiqlol davrida asar oʻzining insonparvarlik, mehnatsevarlik, xalqlar oʻrtasidagi doʻstlikni ulugʻlash, sof va samimiy muhabbatni ardoqlash kabi dolzarb gʻoyalari tufayli yanada muhimroq ahamiyat kasb etmoqda. Bu asarni mukammal oʻqib chiqib, undagi yuksak gʻoyaviylik va beqiyos badiiyatdan bahramand boʻlish har bir vatandoshimizning vazifasidir. Zero, ulugʻ ijodkorlarimizning bebaho asarlari Vatanimiz qadri,



Kitobxon.Com

xalqimizning buyuk tarixi, ilmiy va badiiy salohiyatini chuqur anglab yetishimizdagi asosiy omillardan sanaladi.

«Farhod va Shirin» dostoni shu paytga qadar bir necha marta nashr etildi, uning nasriy bayoni yaratildi. Asar maktab, kollej va litseylarda, oliy oʻquv yurtlarida muttasil oʻrganilib kelinmoqda. Shunga qaramay, yoshlarimiz bu ajoyib doston mazmunini yaxshi oʻzlashtirib olganlaricha yoʻq. Buning eng yaxshi usuli dostonning oʻzini erinmay, har qaysi bayt mazmunini taxlildan oʻtkazib mutolaa qilish, eski soʻzlarni anglashda qiyinchilik tugʻilsa, nasriy bayonning toʻliq matnidan foydalanishdir, albatta. Lekin hatto til-adabiyot oʻqituvchilari, filolog talabalar ham bunday ishning uddasidan chiqolmayaptilar.

Shuni hisobga olgan holda asarning yanada ixchamroq matnini nashr etishni maqbul koʻrdik. Qoʻlingizdagi kitobchada Navoiy dostonining asosiy mazmuni oʻz aksini topgan boʻlib, tabiat manzaralari, lirik chekinishlar, ba’zi voqealar tasviri, qahramonlarning nutqlaridagi ba’zi tafsilotlar qisqaroq bayon qilingan, xolos.

Ushbu nashr ommani Navoiy asarlarining mazmuni bilan tanishtirish sohasidagi yangi bir tajriba boʻlib, kamchiliklardan xoli emasligi ham muqarrar. Muhtaram kitobxonlarning fikr va mulohazalari keyingi nashrlarning takomillashib borishiga yordam berishi shubhasiz.

Ushbu kitobchani oʻqib chiqqach, Navoiyning mazkur dostoninigina emas, boshqa asarlarini ham mufassal oʻrganishga qiziqib qolasiz, deb ishonamiz.

# FARHOD VA SHIRIN

Chin mamlakati g‘oyatda go‘zal bo‘lib, uni qudratli bir podshoh boshqarardi. Shohning osmondagi yulduzlardek behisob lashkari bo‘lib, yuz mingta Qorun xazinasiga teng keladigan boylikka ega edi. Ko‘pgina mamlakatlarning xonlari unga bo‘ysunardilar. Shohning o‘zi nihoyatda saxovatli, fuqarolariga g‘amxo‘r hukmdor edi. Uning farzandi yo‘q bo‘lib, «Men bu dunyodan ko‘z yumsam, taxtu tojim kimga qoladi?», deb afsuslanardi. Bir o‘g‘il ko‘rish orzusida yetimlarning boshini silardi, befarzand fuqarolarga ham mehribonlik ko‘rsatardi. Nihoyat orzulari ushalib, o‘g‘il ko‘rish baxtiga muyassar bo‘ldi. Xursandligidan ko‘pdan-ko‘p javohiru oltinlarni xalqqa ehson qildi, butun mamlakat bezatilib, bir necha kun bayram qilindi. Chin ahli uch yil davomida soliq to‘lashdan ozod qilindi.

Shodligi ichiga sig‘magan podshoh farzandiga yaxshi bir ism qo‘ymoqchi bo‘ldi. Chaqaloqning yuzida «farri shohiy», ya’ni shohlik nuri porlab turardi. Bu nur soyasi ostida esa himmat, iqbol hamda davlat o‘rin olgan edi. Shoh «far» so‘ziga himmat, iqbol[1] va davlat so‘zlarining bosh harflarini qo‘shgan edi, Farhod ismi hosil bo‘ldi. Bolani ana shu ism bilan atadilar-da, ipak matolarga o‘rab beshikka beladilar. Lekin bu ismni otasigina qo‘ygan emasdi. Chaqaloqning pokiza zotini ko‘rgan ishq ham unga Farhod ismini qo‘ygan va uni firoq, rashk, hajr, oh va dard so‘zlarining bosh harflaridan tanlagan edi.[2]

Farhod o‘z tengdoshlaridan boshqacharoq bo‘lib, kechalari yaxshi uxlay olmasdi, doya unga ichirgan har qatra sut ma’no duri bo‘lib singardi. Bir yoshga yetganida, u beshikni tark etib yura boshladi. Uch yoshida aniq, ravon so‘zlaydigan bo‘ldi. Lekin uning so‘zlari asosan ishq afsonalaridan iborat

---

[1] «Iqbol» so‘zi arab yozuvida «o» harfi bilan boshlanadi.

[2] «Farhod» so‘zi arabcha harf bilan yozilganida, qisqa «a» unlisi tushib qoladi.

edi. Uch yasharlik chog'idayoq o'zini o'n yoshli bolalardek tutar, bundan barcha hayron bo'lardi.

Otasi o'g'lining bu sifatlarini ko'rgach, unga ilm berish vaqti yetganini angladi. Bilimli, donishmand bir ustozni topib kelib, Farhodni o'qitishga kirishdi. Uch oy deganda bolaning savodi chiqdi. Shundan keyingi bir yil ichida avvalo, Qur'onni yod oldi. Barcha o'qiganlari uning xotirasida qolar, bir varaqni ikkinchi bor ochmasdi. Muhabbat haqidagi asarlarni o'qiganida, qattiq ta'sirlanib, oshiq chekkan dard uning qalbiga alam-iztirob solardi. Bu kitoblardan ta'sirlangan Farhod biron kishining ko'zida yosh ko'rib qolsa, zor yig'lar, ustoz uning bu ishlaridan lol qolardi. Otasi bilan onasi uning bu holatini ko'rib, qanday chora topishni bilishmas, xalq ham shahzodaning ahvolidan xabar topib tashvishlanardi.

Shu tarzda uning yoshi o'nga yetdi. Jahonda u o'rganmagan, ma'nosini anglab o'zlashtirmagan biron ilm qolmadi. O'n yoshli Farhodda yigirma yashar yigit kuchi-qudrati bor edi. Endi u ilm olishni tugallab, harbiy hunarlarni kasb etishga kirishdi. Oz fursatda jangovor san'atlarni ham egallab, o'q otish, nayza sanchish, qilichbozlik, qalqon bilan jang qilish mahoratlarini egallab, el orasida tanildi.

Farhod ilm va harbiy sohada erishgan yutuqlariga qaramay, o'zini barchadan kamtar tutar, uning uchun podsholik bilan gadolikning farqi yo'q, hatto gadolikni podsholikdan yuqoriroq qo'yardi. Yigitchaning ko'ngli bilan ko'zigina emas, balki tili ham, so'zi ham, o'zi ham pok edi. Ana shu xislatlari uchun fuqarolar ham uni doim duo qilishar, u tomonga nogoh bir sovuq shamol essa, Chin mamlakatining barcha xalqi sovuq oh chekishardi. Nihoyat, Farhod o'n to'rt yoshga yetdi.

Shoh farzandi kamolini ko'rib, har kuni xursandchilik qilardi, ammo Farhod ishqiy dostonlarni o'qir ekan, oshiqlar chekkan dardlardan ko'ngli g'amga to'lar, ishqiy ashulalarni eshitsa, ikki ko'zidan yosh arimasdi.

Xoqon o'g'lining holini ko'rib, o'ylab o'yiga yetolmas, «Nega u hamisha g'amgin, nega doimo ohu afg'on chekadi, ko'z yoshlariga sabab nima ekan?», deb fikr qilar ekan,

Xitoy mamlakatidagi bor go‘zallaru san’atkorlar, nayrangbozlaru sehrgarlarni chaqirtirib uni xursand qilishga intilar, ammo Farhod ularning ishlari sirini tezda anglab yetib, qiziqmay qolardi. Bularni kuzatib turgan otasi o‘ylab-o‘ylab, to‘rtta ajoyib qasr qurishga ahd qildi, toki o‘g‘li har faslda bir qasrda yashab, aysh-ishrat bilan shug‘ullansin.

Bahoriy qasr gulrang, yozgisi – yashil, kuzgi qasr za’faroniy, qishkisi esa oq, kofur rangida bo‘lishi kerak edi. Xoqon ushbu qasrlar bitgach, ularni Chin mamlakatining eng go‘zal qizlari bilan to‘ldirishni, o‘g‘lining ana shu jannatmisol saroylarda lazzatlanishini orzu qilardi. Qurilishga taklif etiladigan hunarmand ustalar: sangtaroshu naqqoshlar qancha toshlarni yo‘nib, hovuzu gilamlar bilan bezatar, xilma-xil naqshu rasmlar chizar ekanlar, Farhod ham ularning hunarlari bilan qiziqib, har bir san’at bilan mashg‘ul bo‘lsa, qasr bitgach esa, ularda lazzatlansa, dilidagi g‘amu anduhlardan qutulsa, ayni muddao bo‘lardi, deb o‘ylar ekan, xoqon dili yorishib ketdi-yu, ichi shodlikka to‘ldi.

Uning Mulkoro degan bir dono vaziri bo‘lib, xoqon har bir ishni u bilan maslahatlashib bajarardi. Mulkoro o‘g‘lining murabbiysi bo‘lib, Farhod ham uni o‘z otasidek ko‘rardi. Shoh eldan yashirincha uni huzuriga chaqirtirdi-da, o‘z fikrlari bilan tanishtirgach, shu ishlarni uning zimmasiga yukladi.

Mulkoro xoqon farmoyishini bajo qilish uchun ko‘plab muhandislaru me’morlarni chaqirtirib, mamlakatdagi eng ko‘ngilochar viloyatlardan to‘rtta mavze’ni tanladi. Har qaysi joy suvi va havosi bilan bir faslga mos bo‘lib, shahzodaning orom olishi uchun maqbul edi. Shundan so‘ng har bir qasrning rejasi chizildi, unda ekiladigan daraxtlarning ham o‘rni belgilab qo‘yilgan edi.

Xitoy mamlakatida egizak ikki usta bo‘lib, birining laqabi Boniy, ikkinchisiniki esa Moniy edi. Boniy me’morlik bilan, Moniy esa naqqoshlik bilan shug‘ullanardi. Boniy qurgan binolar g‘oyat mustahkam bo‘lar, Moniy chizgan rasmlar esa xuddi jonli siymolardek ko‘rinardi.

Yana bir ustodning laqabi Qoran boʻlib, toshkesarlikda unga hech kim teng kelolmasdi. Mulkoro shularga oʻxshash yana koʻplab ustalarni toʻpladi-da, xoqon bu qasrlarni shahzoda Farhodning orom olishi uchun qurdirayotganini ta'kidlab, har bir qasrning hajmi-yu rangi qanday boʻlishi lozimligini tushuntirdi. Soʻzi tugagach, son-sanoqsiz oltinlarni ularning oldiga toʻkdi. Ustalar qoʻllarini shimarib ishga kirishdilar. Mulkoro ularni xursand qilgach, kerakli narsalarni toʻplashga kirishdi. Bu ishga toʻrt sarkorni tayin qilib, yuzta ishbilarmon ustaning har biriga mingtadan mardikorni biriktirib qoʻydi. Har bir togʻ ustida yuz kishi tosh qoʻporar, pastda esa mingta tosh pardozlovchi ish bilan band edi. Aravalarda qurilish joyiga tinmay oqu qizil toshlar tashilar, hamma yoqda ish qaynardi.

Ishlar jadal borar ekan, osmonoʻpar toʻrt qasrning qad koʻtarayotgani haqida shahzodaga xabar yetkazib turardilar. Bajarilayotgan ulkan ishlarning haddan ziyoda ta'rifini eshitgan Farhod otiga mindi-da, qurilishlarni koʻrish uchun joʻnadi. U bilan yuzta kelishgan yigitlar birga borardilar. Qurilayotgan qasrlar oldiga yetib borgan shahzoda bir olam odamlarning joʻshqinlik bilan ishlayotganlari, toʻrt ulkan bino osmonga tegay deb turganini, havozalarning bulutlarga qadar koʻtarilganini koʻrib hayratdan barmogʻini tishlab qoldi. Farhod ustalarning mahorat bilan tosh yoʻnishlarini qiziqish bilan koʻzdan kechirar, oʻtkir teshalari bilan qattiq toshlarni saryogʻdek kesishayotganini koʻrib ularga tahsin oʻqirdi.

Qoran bajarayotgan ajoyib ishlarga koʻzi tushgan shahzoda uning san'atkorligini tomosha qilmoqchi boʻldi. Otdan tushgach, uning oʻtirishi uchun toshdan bir taxt tayyorlashdi. Farhod unga oʻtirdi-da, ustozga murojaat qildi:

– Ey, mohir va bilimdon ustoz! Yaratayotgan san'ating haqida biroz soʻzlab bergil, toki uning mohiyati va yashirin sirlari ayon boʻlsin. Ismingni ayt hamda qanday qilib sening teshang toshlarni mumdek yengil yoʻnayotganidan xabardor qilgil. Negaki, biz bunday ishni shu vaqtgacha koʻrmaganimiz uchun ushbu san'at oldida aqlimiz ojiz boʻlib turibdi. Axir

yog‘och qattiqroq bo‘lsa, unga pichoq ursang, o‘tmaslashib arradek bo‘lib qoladi-ku! Teshangga qanday tarzda suv bergansanki, toshni yo‘nayotgan bo‘lsa ham, zarar topmayapti. Sen toshga qayta-qayta urayotgan bo‘lsang ham o‘tkirligini yo‘qotmayotgan temir metining sirlarini ham aytib bergin!

Toshga naqsh chizuvchi usta yer o‘pib, so‘zini duo bilan boshladi: «Qof tog‘i yaralibdiki, chaqmoqlar toshidan ozor chekadi. Falak toshlaridan boshing omon bo‘lib, toshlaring dardu g‘am boshlarini maydalab tashlasin. Dushmanlaring nasibasi tosh bo‘lsinu ular mashaqqat tog‘ida ovora bo‘lsin.

Otim Qoran, ishim ham ayon: qo‘limda teshayu, oldimda toshlar. Metin bilan tesha nega doimo toshni yo‘nsa ham sinmayapti, deb so‘rading. Buning siri shu asboblarga suv berishda, biz bu sirni elga oshkor qilavermaymiz. Usta o‘z asbobiga shu tarzda suv bersa, yuz yil tosh yo‘nsa ham ular zarar ko‘rmaydi. Xitoy xalqi bu san’atni egallab, olam ahliga tanildi. Lekin hamma ustalar ham mening bilganlarimni bilmaydi, bu so‘zga dalilim shuki, ular men qilgan ishlarni qilisholmaydi».

Donishmand usta so‘zini tugatgach, shahzoda undan: «Oldimda o‘z ishlaring bilan shug‘ullangin, zero bu san’at menga yoqib qoldi. Gohida tosh yo‘ngil, goh toshga naqsh chizgin, men ishlaringni ko‘rib o‘tiray», deb iltimos qildi. Usta shahzoda ko‘nglini xursand etish uchun ishga kirishib, tosh kesish va naqsh chizish bilan shug‘ullandi. Uning ishlarini ko‘rib turgan shahzoda tahsin aytishdan charchamasdi. Quyosh o‘z nurlarini toshlar orasiga yashirgach, ya’ni oqshom tushgach, shahzoda tosh taxtidan turib, shahar tomon yo‘l oldi.

Uyga qaytib kelgan shahzoda oromini yo‘qotdi. Sangtarosh usta san’ati uning ko‘ngliga bu hunarni o‘rganish havasini solgan edi. Shuning uchun tong otishi bilanoq otiga mindi-yu, yana tomosha qilish uchun qurilish joyiga tomon shoshildi. Yetib borgach, xilma-xil hunarlar bilan shug‘ullanayotgan ustalarning mahoratini kuzatarkan, har bir san’at siri bilan qiziqar, shirin so‘zlar bilan ularning ko‘nglini olardi. Bundan

KITOBXON
BILIMLAR XAZINABONI

Bu tanishuv parchasidir. Asarning to‘liq versiyasi https://kitobxon.com/oz/asar/1773 saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси https://kitobxon.com/uz/asar/1773 сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную версию можно найти на сайте https://kitobxon.com/ru/asar/1773